

**“Olmaliq KMK” AJ
xodimlarini xizmatdagi odob-ahloq
qoidalari hamda korrupsiyaga qarshi
kurashish sohasida o‘qitishni
tashkil qilish bo‘yicha
YO‘RIQNOMA**

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Yo‘riqnoma “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati xodimlarining xizmatdagi odob-ahloq qoidalari, korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha o‘qitishni tashkil qilishda asosiy qo‘llanma hisoblanadi.

2. Ushbu Yo‘riqnoma Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalarida xalqaro standartlar talablariga javob beruvchi kompleks tizimni, xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha samarador tizimini joriy etish va takomillashtirish, korrupsiyaviy holatlarni barvaqt aniqlash va ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalari xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murossasiz munosabatni shakllantirish maqsadida ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, Kombinatda korrupsiyaga qarshi profilaktik chora-tadbirlarni tashkil etish, xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari hamda Kombinatning ichki normativ hujjatlariga qat’iy rioya qilish ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

3. Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalardagi xodimlarni xizmatdagi odob-ahloq qoidalari, korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha o‘qitish (keyingi o‘rinlarda matnda – O‘qitish)ning dasturlari va o‘quv materiallari O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik hujjatlari hamda Kombinatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha komplaens-nazorat tizimini joriy etish sohasidagi ichki normativ hujjatlari, shuningdek ushbu Yo‘riqnomaga muvofiq ishlab chiqiladi.

II. Xodimlarni o‘qitishning asosiy tamoyillari

4. Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalar xodimlarini o‘qitish quyidagi asosiy tamoyillarga muvofiq tashkil qilinadi:

xolislik va ilmiylik – xizmatdagi odob-ahloq qoidalari hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi o‘quv materiallarni tayyorlash uchun mas’ul shaxslar o‘quv materiallarining O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga, ilg‘or xalqaro standartlarga hamda xizmatdagi odob-ahloq qoidalari va korrupsiyaga qarshi kurashish nazariyasi va amaliyotiga oid ilmiy tadqiqotlar natijalariga muvofiqligini ta’minlaydi;

amaliy jihatdan qulaylik – Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalar xodimlarini o‘qitish shakllari, usullari va o‘quv materiallari amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi, real hayotiy misollarga asoslangan bo‘lishi, shuningdek xodimlar tomonidan olingan bilimlarni tushunish darajasi hamda olingan bilim va ko‘nikmalarni aniq amaliy topshiriq va vazifalarni hal etishda qo‘llash va nazorat qilish imkoniyatini o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lishi lozim;

uzviylik, izchillik va tizimlilik – xizmatdagi odob-ahloq qoidalari va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi o‘quv materiallari Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalarining xodimlarini o‘qitish tartibi izchil hamda tuzilmaviy-mantiqiy tizimni ifodalaydi. O‘qitish umumiy tushunchalar hamda voqeliklardan juz’iylikga, oddilikdan murakkablikka, boshlang‘ichdan mukammallikka va h.k.z uslublar asosida bosqichma bosqich amalga oshiriladi;

ommaboplik – o‘qitish ishlari Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalar xodimlarning joriy bilimlari va ko‘nikmalarini hisobga olishi, bunda barcha xodimlar uchun tushunarli tilda bo‘lgan o‘quv materiallarini shakllantirish talab qilinadi;

tabaqalashtirilgan/toifalangan yondashuv – Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalarda korrupsiyaga qarshi o‘qitish ishlarini tashkillashtirishda har bir xodimning egallab turgan lavozimi, unga yuklatilgan vazifa va funksiyalar, xodim tomonidan amalga oshiriladigan tartib-taomillarning korrupsiyaviy xavf-xatarlarga moyilligini tahlil qilish natijalariga asoslaniladi. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlarni egallab turgan xodimlar korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida qo‘shimcha ravishda maxsus o‘qitiladi;

o‘qitish usullari, uslubi hamda shakl va mazmunini doimiy ravishda takomillashtirish – o‘quv materiallarini ishlab chiqishda, xodimlarni o‘qitish ishlarida, shuningdek xodimlar tomonidan bilim va ko‘nikmalarning o‘zlashtirilganlik darajasini tekshirishda ilm-fan hamda texnika taraqqiyotining eng ilg‘or va innovatsion yutuqlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

III. O‘qitishning ustuvor vazifalari

5. O‘qitish shakllari va usullarini aniqlashda, (xizmatdagi odob-ahloq qoidalari, korrupsiyaviy xatarlarni bartaraf etish va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi o‘quv materiallarini shakllantirish) Kombinat xodimlarini aynan shu sohada o‘qitish uchun mas‘ul shaxslar quyidagi ustuvor vazifalarga tayanishi lozim:

korrupsiyaviy xatarlarning mohiyati, korrupsiyaning jamiyat hayotining turli soha va yo‘nalishlardagi salbiy ta‘siri, shuningdek Kombinatning funksiyalari, vazifalari, vakolatlari va ichki tartib-taomillarida paydo bo‘lish shakllari va o‘ziga xos jihatlari, sabablari, ijtimoiy jihatdan xavfli va zararli oqibatlarini to‘g‘risida umumiy tasavvurni shakllantirish;

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Kombinatning Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati bilan belgilangan xizmatdagi odob-ahloq qoidalari va hulq-atvorning ahloqiy qadriyatlarini va Kombinatning ichki normativ hujjatlariga qat‘iy va so‘zsiz rioya qilishga asoslangan hulq-atvor modelini shakllantirish;

Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalarining barcha xodimlarini Kombinatda joriy qilingan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tamoyillar, talablar va tartib-taomillar bilan batafsil tanishtirish;

Korrupsiyaviy xatarlar natijasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kelib chiqishiga xizmat qiluvchi shart-sharoitlarni aniqlash va ularning oldini olish qobiliyatini shakllantirish, odob-ahloq hamda hulq-atvor qoidalari buzilishiga nisbatan toqatsizlikni namoyon etish.

IV. O‘quv dasturini ishlab chiqish va o‘tkazishga mas‘ul shaxslar

6. Kombinatning O‘quv markazi rahbari xodimlarni o‘qitish rejalarini tayyorlash, tegishli o‘quv materiallarini ishlab chiqish va o‘qitish uchun mas‘uldir. Kombinatning

Xodimlar bilan ishlash xizmati bunday o'qitishlarni yuksak saviyada tashkil etish, monitoring va nazorat qilish uchun mas'ul hisoblanadi.

7. Kombinatning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi – Komplaens-nazorat xizmati (keyingi o'rinlarda– Komplaens-nazorat xizmati) xodimlarni o'qitish rejalarini tayyorlashda ishtirok etadi, korrupsiyaviy xavf-xatarlar hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi o'quv materiallarini ishlab chiqishda O'quv markaziga yordam beradi, o'qitish ishlarini muvofiqlashtiradi.

8. Kombinatning Xodimlar bilan ishlash xizmati o'qitish intizomiga, davomatiga rioya qilinishi hamda unga doir axborot va ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va tizimlashtirish uchun mas'ul hisoblanadi.

9. Komplaens-nazorat xizmati va Xodimlar bilan ishlash xizmati, muayyan tajribaga ega xalqaro yoki mahalliy tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomalar asosida o'quv materiallarini tayyorlash hamda o'qitishni amalga oshirish uchun uchinchi shaxslarni jalb qilishi mumkin.

V. O'qitish turlari va shakllari

10. O'qitish quyidagi o'quv dasturlarini ko'zda tutishi lozim:

Kombinatning barcha xodimlarini korrupsiyaviy xatarlar va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida umumiy o'qitish;

Kombinat xodimlarini xizmatdagi odob-ahloq va hulq-atvor qoidalari bo'yicha umumiy o'qitish;

korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus o'qitish;

Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo'linmalarda (korxonalar va sexlarda) korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini shakllantirish, joriy etish hamda takomillashtirish uchun mas'ul bo'lgan xodimlar uchun maxsus o'qitish.

11. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan umumiy, odob-ahloq va hulq-atvor qoidalari bo'yicha o'qitishlar Kombinatning barcha bo'g'in va lavozimdagi xodimlari uchun majburiy hisoblanadi.

12. Kombinat xodimlarini xizmatdagi odob-ahloq va hulq-atvor qoidalari bo'yicha umumiy o'qitish, barcha xodimlar uchun amaliy yo'naltirilgan bo'lishi va Kombinatda joriy qilingan xizmatdagi odob-ahloq tamoyillari va qoidalariga doir quyidagi yangi bilimlarga ega bo'lish yoki mavjud bilimlarni takrorlash imkoniyatini ta'minlanishi lozim:

O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish qonunchiligi, korrupsiyaviy xavf-xatarlarga tegishli masalalar, jumladan, huquq va majburiyatlar, xizmatdagi hulq-atvoriga qo'yiladigan talablar, Kombinat xodimlarining korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldini olishdagi harakatlar ketma-ketligiga doir ichki normativ hujjatlarni bilish;

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash, manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaga qarshi boshqa talablar sohasida huquqni qo'llash amaliyotiga doir bilimlar;

Olingan bilimlarni qo'llash ko'nikmalari, jumladan Kombinatning turli faoliyat sohalaridagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash qobiliyati, Kombinatda joriy qilingan xavf-xatarlarni bartaraf qilish choralari amaliyotda qo'llay bilish ko'nikmasi;

Korrupsiyaviy xavf-xatarlar va korrupsiyaviy holatlarni umumiy o'qitish materiallariga kiritish uchun mazkur Yo'riqnomaning 1-ilovasida keltirilgan mavzulardan foydalanish tavsiya qilinadi.

13. Kombinat xodimlari umumiy o'qitish va xodimlarning xizmatdagi odob-ahloq hamda hulq-atvor qoidalari natijalari bo'yicha o'rganilgan material qanchalik o'zlashtirilgani va tushunilgani hamda olingan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash imkoniyatini tekshirishga qaratilgan test sinovlari topshirishi lozim.

14. Kombinat xodimlari savollarning kamida 80 foizga to'g'ri javob bergan taqdirda, umumiy o'qitish va xodimlarning xizmatdagi odob-ahloq hamda hulq-atvor qoidalari muvaffaqiyatli o'zlashtirgan deb hisoblanadi. Basharti xodim savollarning 80 foizidan kamiga to'g'ri javob bergan bo'lsa, takroriy test sinovlarini test topshirgan kundan boshlab 5 (besh) ish kunida qayta topshirishga yo'l qo'yiladi.

15. Korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar uchun maxsus o'qitish, korrupsiyaga qarshi umumiy o'qitishdan mustaqil (qo'shimcha) ravishda o'tkaziladi.

16. Korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxati, Kombinatning Komplaens-nazorat xizmati tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyotiga muvofiq shakllantiriladi.

17. Korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus o'qitish quyidagilar to'g'risida ma'lumotni o'z ichiga olishi lozim:

korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan aniq funktsiya va tartib-taomillardagi xavf-xatarlarni aniqlash va minimallashtirish usullari;

korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan aniq funktsiya va tartib-taomillardagi xavf-xatarning namoyon bo'lish shakllari va turlari;

uchinchi shaxslar bilan o'zaro aloqa qilishda turli hil xavf-xatarga ega eng ko'p moyil bo'lgan aniq funktsiya va tartib-taomillarga xos bo'lgan korrupsiyaga qarshi talablar;

korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan aniq funktsiyalarni amalga oshirishda qo'llaniladigan qo'shimcha talab va tartib-taomillarni o'z ichiga oluvchi ichki normativ hujjatlar.

18. Kombinatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini shakllantirish, joriy qilish hamda takomillashtirish uchun mas'ul bo'lgan xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha maxsus o'qitish, yiliga eng kamida bir marotaba malaka oshirish shaklida (seminar, trening va boshqalar) sohadagi yetuk ekspertlarni (shu jumladan, xorijiy) jalb qilish, shuningdek bunday o'qitishlarga ixtisoslashgan vakolatli uchinchi shaxslar (tashkilotlar) tomonidan tashkil etiladigan treninglarda ishtirok etish orqali o'tkaziladi.

19. Kombinatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini shakllantirish, joriy qilish hamda takomillashtirish uchun mas'ul

bo'lgan xodimlarni maxsus o'qitish O'zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi o'zgarishlar, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf qilish tizimlarini shakllantirish, korrupsiyaning oldini olish tadbirlarini amalga oshirish borasidagi amaliyotga asoslangan ilg'or xalqaro metodika va qo'llanmalarni o'rganishni o'z ichiga olishi kerak.

20. Ushbu Yo'riqnomaning 18- va 19- bandlarida ko'rsatib o'tilgan malaka oshirish va trening kurslarining davomiyligi yiliga eng kamida 50 (ellik) soatni o'z ichiga olishi kerak.

VI. O'qitish muddatlari va davriyligi

21. O'qitish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Kombinatning ichki normativ hujjatlarida ko'zda tutilgan majburiy malaka oshirish doirasida o'qitish, uchinchi shaxslar bilan qo'shma konferensiyalar, yig'ilishlar, simpoziumlar o'tkazilishidan qat'iy nazar amalga oshiriladi.

22. Kombinat xodimlari xizmatdagi odob-ahloq qoidalari, korrupsiyaviy xavf-xatarlar va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida yiliga eng kamida bir marotaba o'qitiladi.

23. Kombinat xodimlari quyidagi hollarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yiliga bir marotabadan ko'p o'qitiladi:

xodim, korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimni egallab turgan bo'lsa;

lavozimga tayinlanganda va rotatsiya qilinganda, basharti shaxsning yangi lavozimi korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar (reestriga) ro'yxatiga kiritilgan bo'lsa;

Kombinatda korrupsiyaviy xavf-xatarlar natijasida korrupsiyaviy harakatlar bilan bog'liq holatlar aniqlanganda yoki amalga oshirilayotgan funktsiya/tartib-taomilning xavf-xatarlar darajasi ortganda;

Boshqaruv raisining buyrug'iga muvofiq.

24. Kombinatga yangidan ishga qabul qilingan yoxud boshqa lavozimga o'tkazilgan xodimlar yangidan ishga kirgan yoxud boshqa lavozimga tayinlangan sanadan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun mobaynida korrupsiyaga qarshi kurashish hamda Kombinat xodimlarining xizmatdagi odob-ahloq hamda hulq-atvor qoidalari bo'yicha umumiy o'qitilishi shart.

O'quv sanasini belgilashda o'qitishning tasdiqlangan yillik jadvali, shakllantirilgan guruhda bo'sh o'rinlarning mavjudligi (kunduzgi o'quv shakli uchun) va mazkur bobning 22-23 bandlarida ko'zda tutilgan o'qitish muddatlari va davriyligiga amal qilish zarurati hisobga olinadi.

Navbatdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha umumiy o'qitish hamda Kombinat xodimlarining xizmatdagi odob-ahloq hamda hulq-atvor qoidalari bo'yicha umumiy o'qitish barcha xodimlar uchun, Kombinatning Xodimlar bilan ishlash xizmati tomonidan yiliga bir marotabadan kam bo'lmagan davriylikda tashkil qilinadi.

25. Xodim korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimni egallab turgani bilan bog'liq holatlarda yoki xodim shunday lavozimga yangidan tayinlanganda,

maxsus o'qitish shu sohada o'qitishning yillik jadvalida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

26. Ijro apparatining Xodimlar bilan ishlash xizmati har yili o'qitish reja-jadvalini tuzadi va dekabr oyining yigirmanchi sanasiga qadar uni Boshqaruv raisi tomonidan tasdiqlanishini ta'minlaydi.

O'qitish jadvalini tuzishda xodimlar tomonidan oldingi o'qitish muddatlari hisobga olinadi.

O'qitish jadvalida albatta o'qitish kursi, nomi, sanasi, shuningdek o'qitish tayinlangan lavozimlar ko'rsatiladi.

Tasdiqlangan reja-jadvalga muvofiq, Xodimlar bilan ishlash xizmatining mas'ul xodimlari o'qitish boshlanishidan 10 (o'n) ish kun oldin tegishli xodimlarni rasman xabardor qilishni ta'minlaydi. Belgilangan muddatda o'qish imkoniyati bo'lmasa (kunduzgi o'quv shakli uchun, masalan, kasallik varaqasi, rejalashtirilgan ta'til singari asosli sabablar), xodim o'qish boshlanishidan 5 (besh) ish kunidan kechiktirmay o'qishni boshqa sanaga ko'chirish masalasida Xodimlar bilan ishlash xizmatini o'rnatilgan tartibda rasmiy shaklda ogohlantirib qo'yishi lozim.

VII. O'qitish intizomini nazorat qilish va hujjatlarni saqlash

27. Xodimlar bilan ishlash xizmati Kombinat xodimlarining xizmatdagi odob-ahloq qoidalari, korrupsiyaviy xatarlar va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishiga doir ma'lumotlarni yig'ib boradi va ularni har chorak yakuni bilan Kombinatning Komplaens-nazorat xizmatiga (korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tuzilmasiga) taqdim etadi.

Komplaens-nazorat xizmati olingan ma'lumotlarni tahlil qiladi (jumladan, o'quv intizomi, xodimlar uchun qiyinchilik tug'dirayotgan mavzular va test savollari) va tahlil natijalarini korrupsiyaviy xavf-xatarlar monitoringi, Kombinatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha joriy qilingan tizimning samaradorligi masalalari bo'yicha doimiy hisobotlarga kiritilishini, shuningdek o'quv materiallarini o'tkazilgan tahlillar natijasiga qarab korrekcirovka qilinishini (zarurat tug'ilganda) ta'minlaydi.

28. Xodim unga tayinlangan o'quv kurslari yoxud test sinovlarida lozim darajada xabardor qilingandan so'ng belgilangan muddatlarda uzrli sabablarsiz qatnashmasa, Xodimlar bilan ishlash xizmati boshlig'i, ushbu xodimning bevosita rahbarini bunday xodimga nisbatan tegishli intizomiy choralar qo'llash uchun ogohlantiradi.

29. O'qitish jadvali, yo'qlama varaqalari, test natijalari, xodimning o'qiganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar Kombinatning Xodimlar bilan ishlash xizmatida uch yil muddat davomida saqlanadi.

VIII. Yakuniy qoidalar

30. Ushbu Yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda Kombinatning ichki normativ hujjatlariga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritilganda yoxud o'qitishni tashkil etish borasida ilg'or xalqaro amaliyot o'zgarganda qayta ko'rib

chiqiladi. Komplaens-nazorat xizmati mazkur Yo'riqnomaga tegishli o'zgartish va qo'shimchalarni kiritish uchun mas'ul hisoblanadi.

31. Kombinatning barcha xodimlari egallab turgan lavozimi, ish staji, mavqei va boshqa omillardan qat'iy nazar mazkur Yo'riqnomaning qoidalari, tamoyillari va talablariga qat'iy rioya qilish uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

“Olmaliq KMK” AJ ijro apparati hamda
tarkibiy bo‘linmalar xodimlarini
“Xizmatdagi odob-ahloq hamda korrupsiyaga qarshi
kurashish sohasida o‘qitishni tashkil qilish bo‘yicha
Yo‘riqnoma”ga ILOVA

**“Olmaliq KMK” AJ ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalar xodimlarini
Xizmatdagi odob-ahloq hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida umumiy o‘qitishning
MAVZULARI**

Mavzu	Mundarija
Komplaens va korrupsiyaviy xatarlar monitoringi mohiyati	Komplaens-nima? va u to‘g‘risida tushuncha; Korrupsiyaviy xavf-xatarlar to‘g‘risida tushuncha, uning paydo bo‘lish omillari va sabablari.
Korrupsiyaviy xavf xatarlar ta‘siri va korrupsiyaning tabiati	Xavf-xatarlarning mavjudligi va uning jamiyat hayotiga ta‘siri; Korrupsiya tushunchasi, uning shakllari va sabablari; Kombinat va uning tizimida korrupsiyaga munosabat.
Korrupsiyaviy xatarlarning shakllanishi	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashning maqsad va vazifalari, ularni aniqlash usullari; Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tasniflash; Xatarlar xaritasi;
Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari	Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyati; Kombinatning korrupsiyaga qarshi kurashishga doir ichki normativ hujjatlar; Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro amaliyot.
Manfaatlar to‘qnashuvi tushunchasi	Kombinat ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalarda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, aniqlash va tartibga solish; Manfaatlar to‘qnashuviga ta‘sir etuvchi omillar; Moliyaviy xatarlarni sodir etilishida manfaatlar to‘qnashuvining roli;
Kombinat va uning tizimida	Kombinat va uning tarkibidagi korrupsiyaviy xatarlarni sodir etilishi, ularni barvaqt aniqlash elementlari,

<p>korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish va ularning oqibatida vujudga kelgan korrupsiyaviy holatlarga qarshi kurashish usullari</p>	<p>shuningdek bartaraf etish muhim chora-tadbirlari sharhi; Korrupsiyaviy xavf-xatarlar monitoringi natijasida yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaviy holatlar tizimining elementlari, ularga qarshi kurashishda belgilangan chora-tadbirlar mohiyati; Kombinat va uning tizimining korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati; Kombinat va uning tizimida tog‘-kon ishlarini korrupsiyaviy jarayonida korrupsiyaviy xavf xatarlarni aniqlash, unga yo‘l qo‘ymaslik uchun ushbu sohadagi mas’ul xodimlar va tarkibiy bo‘linmalarning vazifalari, majburiyatlari va vakolatlarini belgilash; Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xodimlar va tarkibiy bo‘linmalarning majburiyat va vakolatlari; Ma’muriy tartib-taomillar va reglamentlardan foydalanish. Ma’muriy to‘siq va byurokratizimni bartaraf etish; Korrupsiyaviy xavf-xatarlar va korrupsiyaviy harakatlar to‘g‘risida xabar berish (xabarlarni uzatish kanallari, xabarlar mazmuniga doir Yo‘riqnoma, xabarlarni ko‘rib chiqish tamoyillari).</p>
<p>Korrupsiyaviy xavf-xatarlar, moliyaviy operatsiyalardagi asosiy xavf-xatarlar, kontragentlar bilan o‘zaro aloqalar va xaridlar jarayonidagi xavf-xatarlar, shuningdek boshqa xavf-xatarlar va ular oqibatida yo‘l qo‘yilayotgan Kombinatdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar va tipik korrupsiyaviy harakatlar</p>	<p>Kombinat va uning tizimi faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar va korrupsiyaviy harakatlarning asosiy turlari: Nazorat-ruxsat berish funksiyalari va tartib-taomillari doirasidagi xavf-xatarlar; Sovg‘alar va ishbilarmonlik mehmondo‘stligi belgilarini berish/olishdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Fuqarolar, kontragentlar va uchinchi shaxslar bilan o‘zaro aloqalar bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Nomzodlarni Kombinatdagi bo‘sh ish o‘rinlariga tanlab olish va ishga qabul qilishdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Kombinat va uning tizimida xaridlarni amalga oshirish bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Bino va inshootlarni ijaraga berish bilan bog‘liq bo‘lgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar; O‘zaro hamkorlik va tarkibiy bo‘linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish bilan bog‘liq xavf-xatarlar; Tanlovlar (auksion va tenderlar, xaridlar) bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Davlat nazoratini amalga oshirish bilan bog‘liq xavf-xatarlar; Kombinat faoliyatidagi boshqa xavf-xatarlar.</p>
<p>Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish bo‘yicha harakatlar va harakatsizlik uchun javobgarlik. Korrupsiyaviy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlik turlari</p>	<p>Korrupsiyaviy xavf-xatarlar harakati uchun intizomiy javobgarlik; Moliyaviy xavf-xatarlarga yo‘l qo‘yganlik harakatlari uchun intizomiy, ma’muriy va jinoiy javobgarlik; Korrupsiyaviy harakatlar uchun intizomiy, ma’muriy va jinoiy javobgarlik; O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaviy jinoyatlarga doir ishlari bo‘yicha sud amaliyoti sharhi.</p>

<p>Korrupsiyaviy xavf-xatarlar natijasida sodir etilgan korrupsiyaviy holatlarga nisbatan Kombinat xodimlarining toqatsiz (murosasizlik) munosabatini shakllantirish</p>	<p>Kombinat xodimlarining faoliyatini jamoatchilik tomonidan nazorat qilish; Kombinat xodimlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirish; Xodimlar ongi va shuurida Korrupsiyaning har qanday shakli va turiga (ko‘rinishiga) nisbatan toqatsizlik (murosasizlik) fikri va xulq-atvorini shakllantirish (“halollik vaksinasi” tamoyilini joriy qilish).</p>
--	---